



2020 YIL NATIJALARI BO'YICHA OSHIRILGAN "IPOTEKA-BANK" ATIB KORPORATIV BOSHQARISH TIZIMI BAHOLASH HAQIDAGI XULOSA.

“Ipoteka-bank” ATIBning korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash to'g'risida xulosa 04.04.2017 yildagi 1221-sonli litsenziya asosida O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya bo'yicha maslahatchi sifatida ishlaydigan "BIRINCHI BANKLARARO DEPOZITARIY" MChJ tomonidan tayyorlangan. Litsenziya O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan berilgan.

Baholashning asosiy maqsadi Korporativ boshqaruv kodeksining tavsiyalarini bajarish va Jamiyatdagi korporativ boshqaruv tizimining holati to'g'risida mustaqil ob'ektiv fikrni shakllantirishdir.

Jamiyatdagi korporativ boshqaruv tizimini baholash O'zbekiston Respublikasi Davlat raqobat qo'mitasi (hozirgi kunda - O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi) va Korporativ boshqaruv ilmiy-ta'lim markaz tomonidan 2016 yil 25 iyulda tasdiqlangan Savolnoma asosida amalga oshirildi.

Korporativ boshqaruv tizimini baholash Jamiyat tomonidan taqdim etilgan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oshkor qilingan ma'lumotlar asosida amalga oshirildi. “Ipoteka-bank” ATIB rahbariyati Jamiyat tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarning mazmuni va aniqligi uchun javobgardir.

MChJ "BIRINCHI BANKLARARO DEPOZITARIY" mustaqil tashkiloti faqat Jamiyat tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslanib, Jamiyatdagi korporativ boshqaruv tizimini baholash bo'yicha o'z fikrlarini bildirish uchun javobgardir.

Jamiyat tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar, shu jumladan ichki korporativ hujjatlar, hisobotlar va boshqa ma'lumotlar Jamiyatdagi korporativ boshqaruv holati to'g'risida mustaqil fikrni shakllantirish va ifoda etish uchun etarli asos yaratdi.

Baholash natijalariga ko'ra, “Ipoteka-bank” ATIBning korporativ boshqaruv tizimining darajasi **yuqori** deb tan olingan va korporativ boshqaruv tizimi darajasini baholashning yakuniy natigasi **1055 ball** yoki mumkin bo'lgan maksimal natijaning **88%** tashkil etadi.

Rahbar

B. Shakirov

Xulosa chiqarilgan sana: 2021/04/29